



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститутути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институтути ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
Дурбек Мирзаахмадов Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalarini samaradorligining qiyosiy tahlili	82
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
Farrux Oltinboyevich Husanov Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
G'ayrat Soyibovich Raupov Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
Shohista Bobobekovna Toyirova O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
Камилла Бахромовна Суюнова Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
Latofat Tolibovna Yo'ldosheva Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
Матлуба Абдиманабовна Куймуратова Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
Kamol Sharifovich Yuldashev Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
Marjon Komilovna Sharifova Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Умар Худайбердиев Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
Шавкат Собирович Олтаев Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

1. Winston, W. L. (2004). *Operations Research: Applications and Algorithms*. Belmont, CA: Thomson Brooks/Cole.
2. Hillier, F. S., & Lieberman, G. J. (2005). *Introduction to Operations Research*. New York: McGraw-Hill.
3. Gössling, S. (2002). "Global environmental consequences of tourism." *Global Environmental Change*, 12(4), 283-302.
4. Peeters, P., & Dubois, G. (2010). "Tourism travel under climate change mitigation constraints." *Journal of Transport Geography*, 18(3), 447-457.
5. Gross, D., & Harris, C. M. (1998). *Fundamentals of Queueing Theory*. New York: Wiley.
6. Longley, P. A., Goodchild, M. F., Maguire, D. J., & Rhind, D. W. (2005). *Geographical Information Systems and Science*. Chichester: Wiley.
7. DeMers, M. N. (2008). *Fundamentals of Geographic Information Systems*. Hoboken, NJ: Wiley.

Ф.Хусанов	F.Husanov
Моделирование туристических потоков и транспортных проблем	Modeling of tourist flows and transport issues
<p>Аннотация: В данной статье анализируются возможности использования математических моделей для эффективного управления туристскими потоками и транспортными средствами в сфере туризма. Вместе с развитием туризма возрастает необходимость оптимального распределения туристических потоков, снижения нагрузки на транспортную инфраструктуру, эффективного управления системой обслуживания. В статье рассматриваются возможности использования математических моделей при разработке транспортно-логистических систем, моделей дорожного движения, а также навигационных систем.</p> <p>Ключевые слова: туристический поток, математическая модель, навигация, логистика, транспортная инфраструктура, метод потенциалов, картографические модели, математическая модель.</p>	<p>Abstract: This article analyzes the possibilities of using mathematical models for effective management of tourist flows and vehicles in the field of tourism. Along with the development of tourism, the need to optimally distribute the flow of tourists, reduce the load on the transport infrastructure, and effectively manage the service system is also increasing. The article examines the possibilities of using mathematical models in the development of transport and logistics systems, road traffic models, as well as navigation systems.</p> <p>Keywords: tourist flow, mathematical model, navigation, logistics, transport infrastructure, method of potentials, cartographic models, mathematical model.</p>

Suxrob Ramazonovich Bobokalonov – Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, fil.f.n.

BUXORO VILOYATIDA JOYLASHGAN AFSHONA QISHLOG‘IDA TURIZM SHAHARCHASINI TASHKIL ETISH LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari ilmiy-amaliy va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan asoslangan. Ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Buxoro viloyati Peshku tumani Afshona qishlog‘ini turizm shaharchasiga aylantirish bosqichlari ishlab chiqilib, ushbu maskanga yil davomida 10 mlndan ortiq ichki va xalqaro turistik oqimni jalb qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turistik hudud, destinatsiya, turizm qishlog‘i, ichki turizm, xalqaro kirish turizmi, turizm sohasini tartibga solish.


Kirish. Dunyo miqyosida mashhur va buyuk ajdodlarimiz orasida Abu Ali Ibn Sino dahosi O‘zbekistonning eng taniqli namoyondalari qatorida alohida e’tirof etilib, e’zozlanadi. 2021-yil 12-oktabrda Buxoro viloyatiga amalga oshirilgan amaliy tashrifi chog‘ida prezident Shavkat

Mirziyoyev “buyuk bobokalonimiz, ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Afshona qishlog‘ini turizm shaharchasiga aylantirishni” taklif qilib, viloyatning turistik jozibadorligini oshirishda mazkur yo‘nalishda amaliy sa‘y-harakatlar rejasini ishlab chiqish zarurligini qayd etib o‘tgan edi. Afshona Buxoro viloyati Peshku tumani hududida Buxoro shahridan 30 kilometr shimoliy-sharqda joylashgan qadimiy qishloq sanaladi. Buyuk olim Ibn Sinoning tug‘ilgan joyi sifatida tan olingan ushbu qishloqning qoq markazida mahobatli va so‘lim go‘sha mavjud bo‘lib, yashil xiyobon markazidagi alloma haykali, tibbiyot kolleji, hamda Abu Ali ibn Sino muzeyini o‘z ichiga olgan kichik kompleksni vujudga keltirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turistik potensialga ega hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish muammolarini xorijlik olimlardan S.Formica [1], N.Leiper [2], S.Plog [3], V.Altxoflar [4] ilmiy tadqiq etganlar. O‘zbekistonlik olimlardan X.M.Mamatqulov [5], N.S.Ibragimov [6] va B.N.Navro‘z-zodalar [7] tomonidan turistik oqimni hosil qilish qobiliyatining uzviy davomi o‘laroq, uni to‘g‘ri boshqarish, yo‘naltirish mavsumiy o‘zgarishlar fonida yangilanuvchan va dinamik talablarga moslashish, texnologik transformatsiya davriga xos bo‘lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlar taklifi salmog‘ini oshirish va strategik rejalarni ishlab chiqish masalalarini Jelmer Hendrik Gerard Jeuring va Tialda Haartsenlar chuqur tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari aniqlashga oid tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli tahlil, konseptual yondashuv, ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Afshona qishlog‘ining jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi muhim afzalliklari tahlil qilinib, bizning fikrimizcha, mazkur qishloqning Buxoro viloyatida joylashganligi birinchi navbatdagi muhim afzalliklardan biri sifatida qayd etiladi (1-rasm). Boisi, Buxoro nomining o‘ziyoq hech qanday qo‘shimcha izohlarsiz ta’sirchan va jalb qiluvchi reklama vazifasini o‘tay oladigan, xorijliklarni, ayniqsa musulmon olami mamlakatlari aholisini o‘ziga tortish imkoniyatiga ega bo‘lgan xususiyatlarni namoyon etadi. Demak, bu sayohatgohning ustunligini ta’minlovchi tabiiy xususiyat sifatida ham qayd etilishi mumkin va mazkur ijobiy jihat ichki, hamda tashqi imijni o‘zida uyg‘unlashtirgan brend sifatidagi bozor faoliyatida aniq ko‘zga tashlanadi.



1-rasm. Afshonaning jozibador turizm destinatsiyasi sifatidagi muhim afzalliklari¹

Ishchi kuchi potensialini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan demografik holat tahlili natijalariga ko‘ra, Buxoro viloyati bo‘yicha 2024-yil 1-aprel holatida 2 050,6 ming kishi

¹ Muallif ishlanmasi

istiqomat qilib (1-jadval), shundan, shahar aholisi 756,4 ming (37%), qishloq aholisi 1 294,2 ming kishi (63%)ni tashkil etmoqda. Peshku tumanida esa umumiy aholi soni jami 131,4 ming nafarni, shulardan shahar aholisi 16,7 ming, qishloq aholisi soni esa 114,7 ming kishini tashkil etmoqda. Foiz hisobida shahar hududida istiqomat qiluvchi tuman aholisi 13 %, qishloq aholisining ulushi 87 % ni tashkil etmoqda.

2024-yil 1-yanvar holatida Peshku tuman aholisining 57,1 % qismini mehnatga layoqatli yoshdagi insonlar, 12,3 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar, 30,6 % mehnat yoshiga yetmaganlar tashkil etmoqda (2-rasm). Tuman aholisining 2023-yilgi statistik ma’lumotlar bo’yicha 65 dan yuqori yoshdagi shaxslar soni 7067 tani (5,3 %) tashkil etadi. Yaponiyaning jozibador turizm destinatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish tajribasidan kelib chiqib, barcha yosh toifasidagi insonlarning turizmda ishtirokini ta’minlashga imkon qadar sharoitlar yaratish, bunda ularning nafaqat turizm xizmatlari iste’molchisi sifatida, balki turizm xizmatlarini yo’lga qo’yish masalalarida takliflari hamda g’oyalari inobatga olish lozim deb hisoblaymiz. Afshona turizm qishlog’ida tom ma’nodagi qadimiylik ruhiyatini namoyon etishning yo’nalishlaridan biri sifatida hududda istiqomat qilayotgan keksa yoshdagi insonlarning bilimlari hamda tajribalaridan to’g’ri va samarali foydalanishni yo’lga qo’yish, maslahat kengashlari tarkibida ular orasidan vakillar tayinlash, bildiriladigan fikrlarini sayohatgoh loyihalarini amalga oshirish jarayonida inobatga olishda, deb hisoblaymiz.


1-jadval

Buxoro viloyati hududlari kesimida qishloq va shahar aholisining taqsimlanishi [8]

Buxoro viloyati	2 050,6	756,4	1 294,2	100,3	100,3	100,3
Buxoro sh.	296,0	270,9	25,1	100,5	100,5	100,4
Kogon sh.	64,9	64,9	-	100,3	100,3	-
<i>Tumanlar</i>						
Buxoro	179,1	40,9	138,2	100,4	100,5	100,4
Vobkent	149,2	28,8	120,4	100,3	100,0	100,4
Jondor	186,1	35,8	150,3	100,3	100,3	100,3
Kogon	85,0	6,4	78,6	100,5	100,0	100,5
Olot	104,6	39,5	65,1	100,3	100,3	100,3
Peshku	131,4	16,7	114,7	100,2	100,0	100,2
Romitan	151,7	37,9	113,8	100,2	100,3	100,2
Shofirkon	186,7	43,1	143,6	100,1	100,0	100,1

Unga ko’ra, mehnat qobiliyatiga ega bo’lgan jami aholining 8,9 % qismi yoki 4,8 ming kishi 2022-yilgi ma’lumotlarga ko’ra ishsiz ekanligi ma’lum bo’ldi. Afshona turizm qishlog’ida jozibador turizm sayohatgohi loyihasining amalga oshirilishi natijasida tumanda dolzarb bo’lib turgan mavjud ishsizlik muammosini hal etishda sezilarli hissa qo’shishga erishilishi bilan birga, 16.02.2021 yildagi 72-son O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021 — 2023-yillarda Buxoro viloyatining Peshku tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag’allikni qisqartirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorning 6-ilovasidagi Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi “Ibn Sino” MFY hududida turizmni rivojlantirish bo’yicha “Afshona” turizm qishlog’ini tashkil etish bo’yicha Yo’l xaritasida ko’zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi [9].

Hunarmandchilik faoliyati bilan shug’ullanuvchi subyektlar ya’ni usta hunarmandlar, hamda ularning ko’p sonli shogirdlari uzoq asrlik an’analarimizni davom ettirib, qo’l mehnatining nodir namunalarini yaratish orqali tashrif buyuruvchi xorijlik va mahalliy sayyohlarga hudud tarixidan “so’zlovchi” betakror buyumlarni taqdim etish vositasida xizmat ko’rsatadilar.



2-rasm. 2014-2022-yillar davomida Peshku tumanida iqtisodiy faol aholi, band bo‘lganlar va ishsizlar ko‘rsatkichlari¹



3-rasm. Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etishning ijobiy jihatlari²

¹ Buxstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, Afshona qishlog‘i negizida turizm shaharchasining barpo etilishi birinchidan, mamlakatning umumiy turizm taklif tizimi imkoniyatlarini oshirilishiga hissa qo‘shib, yangicha xizmat turlarini joriy etilishiga keng imkoniyat yaratib bersa, ikkinchidan, Buxoro shahri hududining asosiy turistik markazlarida kuzatilayotgan turizm va mashinalar oqimi tig‘izligi muammolarini ma‘lum ma‘noda yechilishiga hissa qo‘shib, turizm oqimini boshqarishda yo‘naltiriluvchi destinatsion markazlar shakllantirilishida nihoyatda ahamiyatli va foydali bo‘ladi. Shunga ko‘ra, Afshona qishlog‘ida turizm shaharchasini tashkil etishning ijobiy jihatlari o‘rganilib, 3-rasm shakllantirildi.

Bugungi global turizm bozori muhiti mamlakatlardan va destinatsiya menejmenti kompaniyalari hamda tarmoq boshqaruv sohasi organlaridan sayohatgohning mashhurligini oshirishga qaratilgan, uzoqni ko‘zlagan siyosat yuritishni, bozor targ‘ibotining zamonaviy talablari va uslublariga muvofiq ish ko‘rishni, turizm ehtiyoji yuqori, katta oqimlarni shakllantirish xususiyatiga ega markazlarga ta‘sir etuvchi, turtki beruvchi mexanizmlarni ishga solishni talab etmoqda. Jahon turizm tashkilotining, qishoq hududlarida turizm sanoatini rivojlantirish strategiyasi aynan, nisbatan chekka hududlarni yuqori raqobatli shart-sharoitlarda rivojlantirishni ko‘zda tutib, o‘z nomidan foydalangan holda, turizm qishloqlarini targ‘ibot qilish imkoniyatini taqdim etish maqsadida eng yaxshi turizm qishloqlari ro‘yxatini e‘lon qilib borayotganligi imkoniyatidan, bizning nazarimizda Afshona turizm qishlog‘ini strategik rivojlantirish maqsadlarida inobatga olinishi zarur. Mazkur “eng yaxshilar” reytingi hududga amalga oshiriladigan turistik tashriflar miqdorini bir necha barobar oshirilishiga asos bo‘lishini inobatga olib, Afshonani UNWTOning eng yaxshi turizm qishloqlari ro‘yxatiga kiritishning asosiy bosqichlari ishlab chiqildi. Tumanda elektr energiyasi ta‘minotida doimiy hamda qisqa uzilishlar kuzatilib turishi va sanoat zonalaridagi tabiiy gazni yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjud ekanligi, salbiy jihatlar hududning nafaqat sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslariga, balki butun boshli iqtisodiy-ijtimoiy natijalarida salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [10].

Biz taklif etayotgan loyihaga ko‘ra, Afshona turizm qishlog‘ining o‘zida quyosh elektr panellari hamda suv isitishga mo‘ljallangan qurilmalardan foydalanilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, panellar shunday shaklda o‘rnatiladiki, ulardan foydalanish jarayonlari va joylashuv nuqtalari hududning an‘anaviylik ruhiyati yo‘g‘rilgan dizaynini buzmasligi inobatga olinadi va mehmonlar agar alohida qiziqish bildirmasalar buni deyarli sezmaydilar ham. Ya‘ni, qishloqning energetik ta‘minot masalalari imkon qadar shu yerning o‘zida hal etilib, qo‘shimcha ravishda elektr yig‘ish uskunalari bilan jihozlanadi, bu degani agar zarurat tug‘ilsa, turizm maskani ortiqcha energiyani yondosh hududlarga yetkazib berish orqali sotish imkoniga ham ega bo‘ladi va buning natijasida daromad manbalari ro‘yxatini yana bittaga oshirib oladi [11].

Afshona qishlog‘ida muallif tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan loyihaga ko‘ra, qishloq hududidan 2 gektar yer maydoni ajratilishi talab etilib, hududning an‘anaviy shakl-shamoyiliga hamohanglik kasb etishi inobatga olinadi va yo‘l yoqasi bo‘ylab qulay joylashuv nuqtasiga ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda shaharchaning asosiy yo‘l bilan tutashgan yo‘nalishida zamonaviy avtoturargohlar qurilib (6-rasm), nogironlar uchun alohida to‘xtash nuqtalari, keyinchalik elektromobillarni zaryadlash kichik stansiyasini ham ishga tushirish rejalashtirilgan.

Eshiklar va ustunlarning an‘anaviy yog‘och o‘ymakorligi namunalari bilan bezatilishi, oddiyroq muhit shaklu-shamoyilini berish lozim nuqtalarda ota-bobolarimizdan meros qurilish texnologiyalaridan foydalanish, milliy o‘ziga xoslik uslubiyotini o‘zida mujassam etgan qadimiylik “ranglarini” to‘g‘ri qo‘llash maqsadida Buxoro viloyatining eng tajribali ustoz-shogird an‘analarini davom ettirib kelayotgan quruvchi-ustalari bunyodkorlik jarayonlariga jalb etiladi.

Yana bir e‘tiborli jihati, turistlar bilan birgalikda Afshonaga yaqin hududdagi bo‘sh yer maydonlarida ko‘chatlar o‘tqazish ko‘ngilochar tadbirlarini tashkil etish (4-rasm), yillar mobaynida ularni parvarishlash loyihalari bilan turistlarni tanishtirish va ma‘lum vaqtdan so‘ng, o‘zi ekan nihollarni kelib ko‘rishi borasidagi motivatsion dasturlar ishlab chiqilib, buning natijasi o‘laroq takroriy turizm tashriflariga zamin hozirlanib boradi.

Loyihaning hayotga tadbiriq etilishi natijasi o‘laroq, 200 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, ishsiz fuqarolarning muqim ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishiga hissa qo‘shiladi va eng avvalo? qamrov

ijtimoiy ko‘makka muhtoj oila vakillari orasidan kadrlar saralab olinishiga qaratiladi. Ahamiyatlisi, agar zarurat bo‘lsa shu yerning o‘zida ularning malakasini oshirib borishga mo‘ljallangan shart-sharoitlari yaratilib, buning uchun Buxoro Davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.



4-rasm. Afshona turizm qishlog‘i negizida tashkil etiladigan turizm shaharchasining umumiy ko‘rinishi

Sayohatgohda joylashtirish vositalaridagi umumiy o‘rinlar soni 200 ta bo‘lishi rejalashtirilgan bo‘lib, buning uchun 20 ta mehmon uylari barpo etiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra yiliga 50 mingdan ziyod mehmonlarning hududga tashrif buyurishi rejalashtirilgan. Yillik daromad hajmi esa 15 milliard so‘m bo‘lishi kutilayotgan bo‘lib, loyihaning amalga oshirilishi uchun zaruriy mablag‘ miqdori 10 milliard so‘mni tashkil etadi. Demak, destinatsiya faoliyati to‘laqonli tartibda yo‘lga qo‘yilgach loyiha o‘z-o‘zini 2 yilda to‘liq hajmda qoplay oladi.

Joriy yilning o‘tgan davrida (2024-yil iyun oyigacha bo‘lgan muddat nazarda tutilmoqda) viloyatga 455,2 ming xorijlik sayyohlar tashrif buyurib, ko‘rsatilgan xizmatlar orqali turizm eksporti 113,8 million AQSH dollariga yetdi. Qayd etib etish joizki, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 34,6 foizga ko‘p [12].

2-jadval

Afshona turizm destinatsiyasiga ichki turistlarni jalb etishga oid prognoz ko‘rsatkichlari¹

Qamrov foizi	1%	1,5%	2%	2,5%	3%	3,5%	4%	
Turistlar soni	34 900	52 900	69 900	87 250	104 700	122 150	139 600	
Turistlar xarajatlari	10\$	349 000	529000	699 900	872 500	1 047 000	1221500	1396000
	20\$	698 000	1058000	1 398 000	1 745 000	2 094 000	2443000	2 792000
	30\$	1 047 000	1587000	2 097 000	2 617 500	3 141 000	3664500	4 188000
	40\$	1 396 000	2116000	2 796 000	3 490 000	4 188 000	4886000	5 584000
	50\$	1 745 000	2645000	3 495 000	4 362 500	5 235 000	6107500	6 980000
	60\$	2 094 000	3174000	4 194 000	5 235 000	6 282 000	7329000	8 376000

¹ Muallif ishlanmasi

2023-yilgi statistik ma’lumotlarga tayangan holda, Buxoro viloyatiga jami tashrif buyurgan turistlar sonining 1 foizdan 4 foizgacha bo’lgan miqdorini transport, ovqatlanish xizmatlari, gid xizmati, Ibn Sino muzeyiga amalga oshiriladigan tashriflar, joylashtirish vositalari va boshqa qo’shimcha xizmatlardan foydalanishga sarflanadigan mablag’lar miqdorini 10 dollardan 50 dollargacha bo’lgan oraliqda deb hisoblanib, daromadlar prognozlari amalga oshirildi [13]. (2-jadval).

2023-yilda Buxoro viloyatiga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan jami turistlarning soni 4,9 milliondan oshganidan kelib chiqib, ushbu miqdordan 1-4 foizgacha bo’lgan turistlarning Afshona turizm sayohatgohiga tashrif buyurilishi natijasida ko’riladigan daromad miqdori prognozlashtirildi (3-jadval).

3-jadval

Afshona turizm destinatsiyasiga jalb etilishi ko’zda tutilayotgan jami turistlarga oid prognoz ko’rsatkichlar¹

Qamrov foizi	1%	1,5%	2%	2,5%	3%	3,5%	4%	
Turistlar soni	49 000	73 500	98 000	122 500	147 000	171 500	196 000	
Turistlar xarajatlari	10\$	490 000	735 000	980 000	1 225 000	1 470 000	1 715 000	1 960 000
	20\$	980 000	1 470 000	1 960 000	2 450 000	2 940 000	3 430 000	3 920 000
	30\$	1 470 000	2 205 000	2 940 000	3 675 000	4 410 000	5 145 000	5 880 000
	40\$	1 960 000	2 940 000	3 920 000	4 900 000	5 880 000	6 860 000	7 840 000
	50\$	2 450 000	3 675 000	4 900 000	6 125 000	7 350 000	8 575 000	9 800 000
	60\$	2 940 000	4 410 000	5 880 000	7 370 000	8 820 000	10 290 000	11 760 000

Natijalarga ko’ra, agar Afshona qishlog’iga viloyat bo’yicha 2023-yilda tashrif buyurgan jami turistlarning bir foizi miqdoridagi turistik oqim jalb etilishiga erishilsa, sayohatgohga yiliga 49 ming nafar turistlar tashrifi amalga oshirilib, ular hududda o’rtacha 10 dollardan xarajat qilgan taqdirda, 490 ming AQSH dollari yoki 6 186 250 000 so’m miqdorida daromad olinishiga erishiladi. Loyihani amalga oshirishga sarflanadigan mablag’ 10 milliard so’m ekanligini inobatga olsak, destinatsiya 2 yilda 12 372 500 000 so’m daromad olib sarflangan xarajatlarni to’liq qoplanishiga erishiladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, bizning fikrimizga ko’ra Afshona qishlog’ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasining hayotga tadbiiq etilishi natijasida quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy o’zgarishlar kuzatilib, amaliy natijalarga erishiladi:

1. Peshku tumani hududida istiqomat qiluvchi mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarning 200 nafari muqim va daromadli ish o’rinlari bilan ta’minlanib, buning natijasida 200 oila xo’jaliklarida qo’shimcha daromad kirishi ta’minlanadi. Biroq, bu faqat dastlabki bosqich bo’lib hisoblanadi, keyinchalik ushbu ko’rsatkichlarni yondosh hududlarda barpo etiladigan Afshona turizm qishlog’ining yangi loyihalari hisobiga kamida 2 barobar oshirilishi kutilmoqda.

2. Turizm shaharchasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilishi hisobiga hudud asosiy energiya ehtiyojini o’zining manbalari orqali qoplashga muvaffaq bo’lib, ortiqcha energiya yaqin-atrofdagi tadbirkorlik subyektlari va xo’jaliklarga qulay narxlarda sotilishi mumkin bo’ladi. BMT va UNWTONing ekologik barqarorlik talablariga ham mazkur amaliy sa’y-harakatlar to’laqonli mos tushib, sayohatgohning jozibadorlik imkoniyatlari va nufuzi oshadi.

3. Loyihaning iqtisodiy samaradorligi shunda ko’rinadiki, 2 yil ichida sarflangan mablag’larning to’laqonli tarzda qoplanishi, hamda yillik daromad hajmi 15 milliard so’mdan

¹ Muallif ishlanmasi

ziyodni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

4. Dunyo miqyosida inklyuziv jamiyatni barpo etish, turizm xizmatlaridan nogironligi bor shaxslarning kengroq foydalanish imkoniyatlarini yaratish va rivojlantirish borasidagi intilishlarga mos tarzda, turizm qishlog‘i hududi to‘laqonli inklyuziv shart-sharoitlar bilan ta’minlanib, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan foydalaniladi.

5. Afshona qishlog‘ini UNWTOning eng yaxshi turizm qishloqlari reytingiga kiritilishi uchun zamin yaratilib, viloyat hududidagi dastlabki e’tirof etilgan turizm qishloqlaridan biriga aylanishiga zamin yaratiladi. Markaziy Osiyoda bunday qishloqlar soni hozirgacha atigi 2 ta ekanligini qayd etib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Formica S. Destination attractiveness as a function of supply and demand interaction. – Virginia Polytechnic Institute and State University, 2000.
2. Leiper, Neil. The framework of tourism: towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry // Annals of Tourism Research. – 1973. – № 6(4). – Pp. 390–407.
3. Plog, S.C. Why destination areas rise and fall in popularity // The Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly. – 1973. – № 14. – Pp. 55–58.
4. Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.
5. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. - Т.: “Iqtisod-Moliya” 2010. - 398 б.
6. N.S.Ibragimov. Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san`ati
7. Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристик хууд рақобатбардошлиги Монография. Бухоро: “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2017, – 156 б.
8. Jelmer Xendrik Jerar Jeuring, Tialda Xartsen., The challenge of proximity: the (un)attractiveness of near-home tourism destinations, Tourism Geographies An International Journal of Tourism Space, Place and Environment Volume 19, 2017 - Issue 1: Proximity and Intraregional Aspects of Tourism.
9. <https://www.buxstat.uz/uz/>
10. <https://lex.uz/uz/docs/-5293947>
11. <https://regulation.gov.uz/uz/document/16672>
12. <https://lex.uz/uz/docs/-6479180?ONDATE=03.08.2024>
13. <https://iaau.uz/uz/news/3237>

<p>С.Бобокалонов</p> <p>Перспективы реализации проекта организации туристического города в селе Афшона, расположенном в Бухарской области</p>	<p>S.Bobokalonov</p> <p>Prospects of implementing the project of organizing a tourism city in afshona village located in bukhara region</p>
<p>Аннотация: В данном исследовании обоснованы перспективы реализации проекта создания туристического городка в селе Афшона, расположенном в Бухарской области, с учетом научно-практических и организационно-экономических аспектов. Разработаны этапы превращения села Афшона Пешкунского района Бухарской области, где родился и вырос великий мыслитель Авиценна, в туристический городок, а также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по привлечению более 10 миллионов отечественных и международных туристов в это место в течение года.</p> <p>Ключевые слова: туристическая территория, дестинация, туристическая деревня, внутренний туризм, международный въездной туризм, регулирование туристической отрасли.</p>	<p>Abstract: This study substantiates the prospects for implementing the project to create a tourist town in the village of Afshona, located in the Bukhara region, taking into account scientific-practical and organizational-economic aspects. The stages of turning the village of Afshona in the Peshku district of the Bukhara region, where the great thinker Avicenna was born and raised, into a tourist town have been developed, and scientific-practical proposals and recommendations have been developed to attract more than 10 million domestic and international tourists to this place during the year.</p> <p>Keywords: tourist area, destination, tourism village, domestic tourism, international inbound tourism, regulation of the tourism industry.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.